



**SURXONDARYO VILOYATI OILALARIDA TOLERANT MUNOSABATLAR
SHAKLLANISHINING ETNOPSIXOLOGIK OMILLARI VA O'ZIGA XOSLIGI.**

Abdimovminova Sabina Baxrom qizi

Termiz davlat universiteti psixologiya yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Surxondaryo vohasi oilalarida tolerantlik (bag'rikenglik) munosabatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi etnopsixologik xususiyatlar tahlil qilinadi. Vohaning o'ziga xos demografik tarkibi, urug'-aymoqchilik an'analari va mahalla instituti orqali oilaviy munosabatlardagi sabr-toqat, andisha va o'zaro hurmat kabi fenomenlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Etnopsixologiya, tolerantlik, Surxon vohasi, oilaviy qadriyatlar, mentalitet, an'anaviylik, madaniyatlararo muloqot.*

Аннотация:

В данной статье анализируются этнопсихологические особенности формирования толерантных отношений в семьях Сурхандарьинского оазиса. Рассматриваются такие факторы, как специфический демографический состав региона, традиции родоплеменных связей и институт махалли, которые влияют на развитие терпения, уважения и этикета «андиша» в семейных отношениях. Автор акцентирует внимание на механизмах передачи этнокультурных ценностей от поколения к поколению как основе социальной стабильности

Ключевые слова: *Этнопсихология, толерантность, Сурхандарьинский оазис, семейные ценности, менталитет, традиционализм, межкультурный диалог, социальная адаптация.*

Abstract:

This article analyzes the ethnopsychological features of the formation of tolerant relationships in families of the Surkhandarya oasis. It examines factors such as the region's unique demographic composition, tribal traditions, and the "mahalla" institution, which influence the development of patience, mutual respect, and the "andisha" (etiquette/discretion) phenomenon in family relations. The author focuses on the mechanisms of transmitting ethnocultural values across generations as a foundation for social stability and harmony.

Keywords: *Ethnopsychology, tolerance, Surkhandarya oasis, family values, mentality, traditionalism, intercultural dialogue, social adaptation.*

O'zbekistonning janubiy darvozasi hisoblangan Surxondaryo viloyati o'zining ko'p asrlik tarixi va boy etnomadaniy merosi bilan ajralib turadi. Bugungi globallashuv davrida oila institutida tolerant munosabatlarni saqlab qolish va rivojlantirish nafaqat ijtimoiy, balki muhim psixologik masala hisoblanadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Surxon oilalarida tolerantlik — bu shunchaki nizolarning yo‘qligi emas, balki ko‘p millatli va turli urug‘lardan tashkil topgan ijtimoiy muhitda o‘zaro moslashish (adaptatsiya) va hamjihatlikda yashash san’atidir. Tolerantlik – (lot. “tolerantia” – “sabr-toqat”) jamiyatdagi turfa madaniyatlik, plyuralizm, turli-tumanlik va xilma-xilliklarning mavjudligini tan olish, qabul qilish, to‘g‘ri tushunish va hurmat qilishga qaratilgan ijobiy munosabat, deya ta’riflanadi hamda ushbu tushunchaning o‘zbek tilida bag‘rikenglik, sabrlilik, qanoatlik, toqatlik, bardoshlilik, chidamlilik kabi bir qator sinonimlarga egaligi alohida e’tirof etiladi.

Ijtimoiy va madaniy xilma-xillikka nisbatan individual hamda ijtimoiy munosabat, shuningdek, o‘zga fikr, e’tiqod va yurish-turish uslubiga nisbatan sabr-toqatlik shakli sifatida tolerantlikka – madaniyatlik va yetuklikning asosiy alomati deb qarashimiz mumkin.

Tolerantlik xususiyatini o‘rganishda milliy an’analar, qadriyatlar va madaniyatga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan, xalqimiz tolerantligi O‘zbekistonda milliy hamjihatlik ruhini tarkib toptirib, turli millat vakillari O‘zbekistonni o‘z vatani deb his etishiga, milliy madaniyati, san’ati, diniy munosabatlari va e’tiqodini namoyish qilishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Bag‘rikenglik birinchidan, insoniy, oilaviy, milliy va umuminsoniy bag‘rikenglik tarzida ko‘zga tashlanib tursa; ikkinchidan, o‘z-o‘zini hurmatlash va qadrlash, murosa, o‘zaro hurmat, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr qilish kabi shakllarida namoyon bo‘ladi va nihoyat, uchinchidan, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro va davlatlararo yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadi. Shunday qilib bag‘rikenglik bor joyda qilingan gunohlar kechiriladi, ichki va tashqi ziddiyatlarning oldi olinadi, xayrli va savobli ishlarga qo‘l urish uchun keng imkoniyatlar ochiladi, oilada totuvlik, insonning ma’naviy vujudida esa tansihatlik va xotirjamlik hukm sura boshlaydi, xalqlar va mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, qolaversa, do‘stlik va birodarlik rishtalari tobora mustahkamlanib boraveradi. Ijtimoiy psixologiyada tolerantlik namoyon bo‘lish turlarini o‘xshashlik-farqlarning asosiy diapazonlarini belgilovchi uchta asosga ko‘ra tasniflash mumkin: •ijtimoiy ifodaga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi yosh-jinsiy va individual-tipik farqlar (jins (gender), bolalar, avlodlararo, yoshga nisbatan bag‘rikenglik); •shaxsiy va ijtimoiy-psixologik farqlar (shaxslararo va guruhlararo bag‘rikenglik, u bir nechta bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: psixofiziologik, xarakteristik, shaxsiy, ehtiyoj-motivasion, me’yoriy maqsadli, qadriyatlarga asoslangan, axloqiy-etik, mazmunli, faoliyat uslubi va boshqalar); • ijtimoiy-madaniy va madaniy-tarixiy farqlar (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, kasbiy, millatlararo, konfessiyalararo, madaniyatlararo tolerantlik). Tolerantlikning namoyon bo‘lish darajalari u mavjud bo‘lgan ijtimoiy-psixologik hodisalarga bog‘liq. Tolerantlik o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. U deyarli barcha ma’lum ijtimoiy-psixologik hodisalarni qamrab oladi, Xususan, tolerantlikni ustanovka darajasida (attityud), munosabatlar darajasida, qadriyatlar darajasida guruh va individual me’yorlar, axloqiy va etik me’yorlar, shaxsiy xususiyatlar, faoliyat uslubi, ehtiyoj-motivasion va o‘zaro ta’sir maqsadi darajasida ko‘rib chiqish mumkin bo‘ladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lundberg E. (ed.). Mechanisms of tolerance: an anthology //Margin. – 2006. – Т. 2002. – С. 2004. https://www.researchgate.net/profile/Erik-Lundberg-7/publication/314470566_The_mechanisms_of_tolerance_an_anthology/links/59529e2c0f7e9b3292381a69/The-mechanisms-of-tolerance-an-anthology.pdf
2. Dr.Magda Rights and tolerance in Islam. <https://ia802805.us.archive.org/28/items/learnislampdfenglishbookrightstoleranceinislammagdaamer/learn%20islam%20pdf%20english%20book%20%20RightsToleranceInIslamMagdaAmer.pdf>
3. Силина Л. А. Особенности формирования толерантности в семье //Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. – 2017. – Т. 6. – №. 1А. – С. 118-127. <http://publishing-vak.ru/file/archive-psychology-2017-1/12-silina.pdf>
4. Alexander F. Психосоматическая медицина: принципы и применение. — Москва: Медицина, 2002. — 412 с.
5. Freud S. Я и Оно. — Москва: Эксмо, 2019. — 256 с.
6. Engel G. L. Биопсихосоциальная модель медицины // Science. — 1977. — №196(4286). — С. 129–136.
7. Kaplan Н. I., Sadock В. J. Клиническая психиатрия. — Санкт-Петербург: Питер, 2018. — 1456 с..